

VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 1- yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 76 739 tani tashkil qilib, shundan 60 246 tasi yoki 69,7 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar asosan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasiga 31 421 ta (40,9 foizi), savdo 16 245 ta (21,2 foizi), sanoat 8 502 ta (11,1 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4 139 ta (5,4 foizi), qurilish 3 419 ta (4,5 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona va tashkilotlar soni

	Ro'yxatga olanganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan, % da	birlik	yakunga nisbatan, % da
Jami	76 739	100,0	60 246	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31 421	40,9	17 346	28,8
Sanoat	8 502	11,1	8 050	13,4
Qurilish	3 419	4,5	3 280	5,4
Savdo	16 245	21,2	15 251	25,3
Tashish va saqlash	1 219	1,6	1 174	1,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4 139	5,4	3 885	6,4
Axborot va aloqa	804	1,0	760	1,3
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	955	1,2	923	1,5
Boshqa turdag'i xizmatlar	10 035	13,1	9 577	15,9

Ro'yxatga olingan korxonalar umumiyligi sonining 5,3 foizi davlat va 94,7 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar hisoblanadi.

Ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar



(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)

01.01.2021- y.


01.01.2022- y.

Ro‘yxatga olingan korxonalarning 94,7 foizini nodavlat mulki shaklidagi korxonalar tashkil qilib, jami nodavlat shaklidagi korxonalarning 10,2 foizi xususiy korxonalar, 0,9 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 12,5 foizi oilaviy korxonalar va 71,1 foizi boshqa korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.


Ro‘yxatga olingan nodavlat mulkidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar

(umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)

01.01.2021- y.



01.01.2022- y.



- Oilaviy korxonalar
- Xususiy korxonalar mulki
- Chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar
- Boshqa mulkchilik shakllari


2021- yil yanvar-dekabr oylarida jami 12 123 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan. Ularning asosiy qismi Samarqand shahrida (23,4 foizi), Payariq (9,4 foizi), Pastdarg‘om (9,1 foizi), Urgut (8,0 foizi), Samarqand (7,3 foizi), Kattaqo‘rg‘on (5,8 foizi), Ishtixon (5,8 foizi), Oqdaryo (5,2 foizi) va Jomboy (4,0 foizi) tumanlariga to‘g‘ri keldi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 41,7 foizi savdo, 16,4 foizi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 15,7 foizi sanoat, 8,6 foizi yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,7 qurilish, 1,9 axborot va aloqa, 1,5 sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,3 foizi tashish va saqlash hamda 9,2 foizi boshqa sohalarga to‘g‘ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2022- yil 1- yanvar holatiga viloyatda jami 646 ta xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar mavjud bo‘lib, ularidan 431 tasi qo‘shma korxonalar, 215 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi

	<i>Soni</i>	<i>ulushi, %</i>
Viloyat bo‘yicha	646	100,0
Samarqand sh.	289	44,7
Kattaqo‘rg‘on sh.	22	3,4
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	34	5,3
Bulung‘ur	24	3,7
Jomboy	46	7,1
Ishtixon	15	2,3
Kattaqo‘rg‘on	12	1,9
Qo‘shrabot	22	3,4
Narpay	5	0,8
Payariq	16	2,5
Pastdarg‘om	31	4,8
Paxtachi	9	1,4
Samarqand	41	6,3
Nurobod	14	2,2
Urgut	53	8,2


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida (289 ta yoki 44,7 foizi), Urgut (53 ta 8,2 foizi), Jomboy (46 ta 7,1 foizi), Samarqand (41 ta 6,3 foizi), Oqdaryo (34 ta 5,3 foizi), Pastdarg‘om (31 ta 4,8 foizi), Bulung‘ur (24 ta 3,7 foizi), Qo‘shrabot (22 ta 3,4 foiz), Kattaqo‘rg‘on shahrida (22 ta 3,4 foizi), Payariq (16 ta 2,5 foiz), Nurobod (14 ta 2,2 foizi), Ishtixon (15 ta 2,3 foiz), Toyloq (13 ta 2,0 foizi) va Kattaqo‘rg‘on tumanlari (12 tadan 1,9 foizi) hissalariga to‘g‘ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Narpay (5 ta 0,8 foizi) va Paxtachi tumanlarida 9 tadan 1,4 foizi) hissalariga to‘g‘ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarininig hududlar kesimidagi soni, birlikda



Sohalar kesimida ushbu ma’lumotlar 2022- yilning 1- yanvar holatiga qaralganda eng ko‘p sanoatda 316 ta (48,9 foiz), savdoda 108 ta (16,7 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi 75 ta (11,6 foiz), boshqa turlarida esa 53 ta (8,2 foiz), qurilishda 37 tani (5,7 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 22 ta (3,4 foiz)ni tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 7 ta (1,1 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 12 ta (1,9 foiz) hamda tashish va saqlashda 16 ta (2,5 foiz)ni tashkil qilgan.


Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda



2021- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha viloyatda jami 96 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy qismi Samarqand shahrida 66 ta, Urgut tumanida 4 ta, Kattaqo'rg'on shahrida, Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on, Nurobod, Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida 3 tadan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 27 ta, savdoda 25 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 11 ta, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 5 ta, axborot va aloqada 4 ta, qurilish 3 ta, tashish va saqlashda 2 ta va boshqa turlarida 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2022- yil 1- yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 40 724 tani tashkil qilib o'tgan yilga nisbatan 23,0 foizga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi, ya'ni 11 953 tasi (29,4 foizi) Samarqand shahriga, 3 532 tasi (8,7 foizi) Urgut, 3 408 ta (8,4 %) Pastdarg'om hamda 3 085 tasi (7,6 %) Samarqand tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2021- yil yanvar-dekabr oylari davomida 10 814 ta kichik tadbirkorlik subyektlari yangi tashkil etilgan bo'lib, Samarqand shahrida (2 734 ta), Pastdarg'om (1 065 ta), Urgut (886 ta), Samarqand (860 ta), Ishtixon (656 ta) va Oqdaryo tumanlarida (601 ta) tashkil etilgan. Eng kam yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari esa Qo'shrabot (224 ta) tumaniga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari, birlikda



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- yanvar holatiga 9 626 tani tashkil etib, ulardan 9 041 tasi yoki 94,6 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiyligi soni o'rtacha 34,2 foizga o'sgan.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi, ya'ni 2 185 tasi Samarqand shahriga, 1 020 tasi Pastdarg'om, 999 tasi Samarqand hamda 791 tasi Payariq tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda oilaviy korxonalarning 39,0 foizi yoki 3 528 tasi savdoda, 24,6 foizi yoki 2 226 tasi sanoatda, 21,3 foizi yoki 1 930 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 7,0 foizi yoki 637 tasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 0,9 foizi yoki 81 tasi axborot va aloqada, 0,6 foizi yoki 57 tasi qurilishda, 0,5 foizi yoki 44 tasi tashish va saqlashda, 0,5 foizi yoki 43 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda 5,5 foizi yoki 495 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Korxonalar va tashkilotlarning (dehqon va fermer xo‘jaliklarsiz) hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda

	Ro‘yxatga olingan			
	01.01.2021- y. holatiga	shundan: kichik korxona va mikrofirmalar	01.01.2022- y. holatiga	shundan: kichik korxona va mikrofirmalar
Viloyat bo‘yicha	41 145	35 022	49 370	43 130
Samarqand sh.	12 168	10 646	14 141	12 564
Kattaqo‘rg‘on sh.	1 414	1 238	1 626	1 445
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 591	1 340	2 107	1 852
Bulung‘ur	1 594	1 310	1 974	1 689
Jomboy	1 560	1 310	1 959	1 708
Ishtixon	2 194	1 868	2 644	2 319
Kattaqo‘rg‘on	2 017	1 669	2 512	2 158
Qo‘shabot	992	752	1 142	907
Narpay	1 343	1 048	1 575	1 276
Payariq	2 228	1 870	2 622	2 259
Pastdarg‘om	3 442	2 936	4 179	3 668
Paxtachi	1 060	799	1 313	1 052
Samarqand	3 030	2 721	3 746	3 428
Nurobod	1 192	968	1 540	1 313
Urgut	3 572	3 068	4 182	3 654
Toyloq	1 748	1 479	2 108	1 838

	<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>			
	<i>01.01.2021- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	38 946	33 114	46 667	40 724
Samarqand sh.	11 605	10 190	13 414	11 953
Kattaqo'rg'on sh.	1 326	1 152	1 531	1 351
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	1 515	1 272	1 945	1 701
Bulung'ur	1 480	1 213	1 891	1 619
Jomboy	1 521	1 283	1 885	1 650
Ishtixon	2 059	1 752	2 513	2 206
Kattaqo'rg'on	1 911	1 571	2 428	2 085
Qo'shrabot	918	684	1 076	847
Narpay	1 316	1 032	1 542	1 254
Payariq	2 055	1 712	2 438	2 089
Pastdarg'om	3 244	2 753	3 901	3 408
Paxtachi	1 022	778	1 264	1 017
Samarqand	2 796	2 503	3 389	3 085
Nurobod	1 130	913	1 431	1 211
Urgut	3 432	2 951	4 038	3 532
Toyloq	1 616	1 355	1 981	1 716

	<i>Faoliyat ko 'rsatmayotgan</i>			
	<i>01.01.2021 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2022 y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo'yicha	2 199	1 908	2 703	2 406
Samarqand sh.	563	456	727	611
Kattaqo'rg'on sh.	88	86	95	94
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	76	68	162	151
Bulung'ur	114	97	83	70
Jomboy	39	27	74	58
Ishtixon	135	116	131	113
Kattaqo'rg'on	106	98	84	73
Qo'shrabot	74	68	66	60
Narpay	27	16	33	22
Payariq	173	158	184	170
Pastdarg'om	198	183	278	260
Paxtachi	38	21	49	35
Samarqand	234	218	357	343
Nurobod	62	55	109	102
Urgut	140	117	144	122
Toyloq	132	124	127	122

	<i>Yangi tashkil etilgan</i>			
	<i>01. 01.2021- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo‘yicha	8 828	8 658	11 063	10 814
Samarqand sh.	2 346	2 282	2 833	2 734
Kattaqo‘rg‘on sh.	336	332	311	301
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	338	333	611	601
Bulung‘ur	392	379	426	421
Jomboy	384	381	450	440
Ishtixon	519	514	667	656
Kattaqo‘rg‘on	490	478	577	563
Qo‘shabot	251	241	226	224
Narpay	280	277	318	310
Payariq	428	421	573	564
Pastdarg‘om	708	700	1 074	1 065
Paxtachi	258	251	322	313
Samarqand	695	691	869	860
Nurobod	294	289	413	408
Urgut	706	688	920	886
Toyloq	403	401	473	468

	<i>Faoliyati tugatilgan</i>			
	<i>01.01.2021- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>	<i>01.01.2022- y. holatiga</i>	<i>shundan: kichik korxona va mikrofirmalar</i>
Viloyat bo‘yicha	991	961	2 852	2 765
Samarqand sh.	142	139	846	820
Kattaqo‘rg‘on sh.	64	62	98	94
<i>tumanlar:</i>				
Oqdaryo	76	72	105	101
Bulung‘ur	51	48	51	50
Jomboy	34	34	63	56
Ishtixon	96	93	221	212
Kattaqo‘rg‘on	68	60	79	77
Qo‘shrabot	13	13	79	72
Narpay	43	43	84	80
Payariq	40	39	175	171
Pastdarg‘om	91	90	336	334
Paxtachi	45	44	65	62
Samarqand	42	41	163	160
Nurobod	77	75	65	63
Urgut	46	46	311	303
Toyloq	63	62	111	110